



## YOSHLARNI MA'NAVIY VA MADANIY MEROSGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASHDA MAKTABLAR VA MUZEYLAR ALOQADORLIGINING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

*Nizomxonova N.E.*

*Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

**Tayanch soʻzlar:** muzey, tarixiymeros, ajdodlarimizmerosi, eksponat, ekspozitsiya, ekskursiya, intellektual, badiiy-estetik, muzey toʻgaraklari, kolleksiyalar.

**Ключевые слова:** музей, историческое наследие, наследие наших предков, экспонатный, экспозиционный, экскурсионный, интеллектуальный, художественно-эстетический, музейные кружки, коллекции.

**Key words:** museum, historical heritage, heritage of our ancestors, exposition, exposition, excursion, intellectual, artistic-aesthetic, museum circles, collections.

Har qanday jamiyat taraqqiyoti va ma'naviyati yuksalishining bosh omili ta'limdir. Shu tufayli davlatimiz siyosatida ta'lim, uni rivojlantirish hamda takomillashtirish muhim o'rin egallaydi. Darhaqiqat, jamiyatning rivojlanish darajasi ko'p jihatdan ta'lim va uning jamiyatdagi rolga bog'liq. Jamiyatni yangilash asosida ta'lim sohasini isloh qilish jarayoni kechayotgan hozirgi davrda ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirish eng muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Haqiqatdan ham «Har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir»[1].

Hozirgi davrda ta'lim muassasalari, xususan, maktablarning muzeylar bilan aloqasini mustahkamlashda quyidagi tamoyillar muhim ahamiyatga ega:

- muzey ekspozitsiyalarining maktab o'quvchilari yosh xususiyati va bilim darajasiga mosligi;
- o'quvchilarga xalqimizning o'tmishdagi boy tarixini muzey ekspozitsiyalarida namoyish etilishi;
- muzey ekspozitsiyalarining o'tmish va hozirgi davr, tashrif buyuruvchilar va yodgorliklar, o'qituvchi va o'qituvchilar o'rtasida dialogik usulga mosligi.

O'smirlar kamolotida ko'pincha taqlid uchun namuna bo'ladigan «o'z qahramoni» bo'lishi xarakterlidir. Bular yirik jamoat arbobi, zamonaviy ommabop musiqiy madaniyat vakili yoki o'z atrofidagi yaxshi ko'rgan san'atkori ham bo'lishi mumkin. Ekskursovod yoki o'qituvchining san'atkor taqdiri va shaxsi to'g'risidagi maroqli hikoyasi o'smirni qiziqtirib qolishi, uning faoliyatiga ta'sir qilishi, shakllanishiga yordam berishi mumkin. [2].

Maktablarda muzey pedagogikasi bo'yicha dasturlarni yaratish va amalga oshirish bo'yicha muzey xodimi va maktab o'qituvchisining aloqadorligiga yo'naltirilgan maktab o'qituvchilari uchun maxsus kurslar tashkil etish zarurati paydo bo'ldi. Buning uchun pedagogika oliy o'quv yurtlarida pedagog-kadrlar tayyorlashda ularni ham maktab, ham muzeylarda ekspozitsiyalar bilan ishlash uchun o'qitish muammosi va bu muammoning yechimi muzeylarning hozirgi davrda ma'lum bir ta'lim muassasasi sifatida ham faoliyat yuritishiga to'g'ri keladi. Bunda muzeylar oliy ta'lim muassasalarining fan sohalari bo'yicha muzeylar bilan o'zaro aloqa o'rnatishida shartnomalar asosida ish ko'rishi maqsadga muvofiq. Masalan, tasviriy san'at fakultetlari san'at, xalq amaliy san'ati muzeylari bilan, tarix fakultetlari o'lkashunoslik, Amir Temur va temuriylar Davlat muzeyi, filologiya fakultetlari adabiyot muzeyi va Davlat san'at muzeyi hamda geografiya, biologiya va boshqa fakultetlar ham boshqa sohaviy muzeylar, viloyatlarda esa o'lkashunoslik muzeylari bilan shartnoma asosida ishlashlari va bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlashda muzey pedagogikasi bilan ham bilimga ega qilishlari, shu bilan birga institutlar tarkibida bu soha mutaxassislarini tayyorlashda maxsus bo'limlar tashkil etishlari mumkin. Chunki, hozirgi zamon o'qituvchisi, albatta muzeylardagi mavjud san'at namunalari, ma'naviy boyligimizdan xabardor bo'lishi bilan birga ular haqida bilimga ega bo'lishi ham mumkin.

Maktablarda muzey pedagogikasiga doir ishlarni olib borish o'quvchilarning sohalar bo'yicha tassavurini boytishda, bilimlarini mustahkamlashga ko'nikmalar hosil qilishlariga xizmat qiladi. Bu faoliyat ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, maktab o'qituvchilari bilan muzey xodimlari hamkorligida maktablarda tashkil etiladigan ma'ruzalarni, tadbirlarni, ochiq darslarni, amaliy ko'rgazmali chiqishlarni va boshqa mashg'ulotlarni o'z tarkibiga oladi. Lekin bu faqat muzey xodimlarining qo'shimcha tadbirlari tarzida tashkil etilibgina qolmasdan ko'proq ma'naviy tadbirlar sifatida maktabning o'quv-tarbiyaviy ishlari bilan bog'liq holda tuzilgan rejalariga muvofiqlashtirilib, uzluksiz ravishda olib borish maqsadga muvofiqdir.[3].

Muzeylarning ta'lim-tarbiyaga yo'naltirilgan muzey pedagogikasini maktablar ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida qarash hozirgi davrda o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda.



Yuqorida bayon etilgan fikrlar natijasida muzeylar va maktablarning o‘smir bolalar bilan ishlash mavzusi va shakllari xilma-xil bo‘lishini anglatadi.

Faqat san’at tarixi bo‘yicha ekskursiyalardan tashqari ularga «San’atkor haqida suhbatlar» deb nomlangan monografik xarakterdagi turkumlarni ham taklif qilish mumkin.

Maktab va muzeylar aloqadorligi sharoitida ularning ta’lim-tarbiyadagi o‘ziga xos xususiyatini bilish ham katta ahamiyat kasb etadi. Uning ichki tuzilishida quyidagilar o‘z ifodasini topishi muhim.

1. Muzeylarda maktab bilan aloqadorlikni tashkil etish. Bu faoliyat muzeylarga uyushtiriladigan ekskursiyalar, muzey ekspozitsiyalari atrofida yoki muzey auditoriyasida tashkil etiladigan mashg‘ulotlardir. Bu mashg‘ulotlar maktab tomonidan tavsiya etilgan mavzular bo‘yicha tashkil etiladi. Zero, maktabda o‘qitiladigan fanlar, ayniqsa, san’at, tarix, adabiyotga doir o‘quv fanlari muzey materiallariga tayanadi. Agar ilgari bu qo‘shimcha material sifatida o‘rganilgan bo‘lsa, hozirgi davrda muzey ekspozitsiyalarining o‘ziga xos jihatlari va imkoniyatlari ham namoyon bo‘ladiki, bu esa o‘z navbatida o‘quvchilar faqat olgan bilimlarini chuqurlashtirish bilangina emas, balki o‘quvchilarning vizual tafakkuri rivojlanib, obrazli tafakkuri qobiliyati, emotsional madaniyati, maqsadga yo‘nalganligi bilan ham ajralib turadi.

Natijada maktablarning bevosita muzeyda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlari maqomi o‘zgaradi, ya’ni maktablarning ta’limiy obro‘si ko‘tariladi, ota-onalar va o‘quvchilarning mazkur maktabga qiziqishi ortadi.

2. Maktabda muzey pedagogikasiga doir ishlarni olib borish. Bu faoliyat ham o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, muzey xodimlari tomonidan maktablarda tashkil etiladigan ma’ruzalar, fakultativ kurslar va boshqa mashg‘ulotlarni o‘z tarkibiga oladi.

Bu borada maktablarda o‘quv-tarbiya jarayonini muzeylar bilan aloqada rejalashtirishda quyidagilarni hisobga olish zarur:

- o‘quvchilarda ma’naviy merosga hurmatni tarbiyalashda muzeylardagi tarixiy, adabiy, san’at namunalarini izchil o‘rganishni ular ongiga singdirish;
- ma’naviy merosning tarixiy ildizlarini bilishga doir ko‘nikma va malakalarni paydo qilish;
- har bir adabiy, tarixiy, san’at asarlarining ijodkori, uning o‘ziga xos xususiyatini anglab yetishni shakllantirish;
- tarixiy, adabiy, san’at namunalarini bir butun, yaxlit ma’naviy meros sifatida tushunishga erishish;
- o‘quvchilarning bilish faoliyatini xalqimiz ma’naviy madaniyatini anglashga yo‘naltirish orqali Yevropa va dunyo ma’naviy madaniyatida tutgan o‘rnini tushunishga erishish;

- muzeylardagi ma'naviy meros namunalarini ko'rish orqali tomoshabin madaniyatini shakllantirish;
- o'quvchilarning individual xususiyatlarini namoyon etish, borliqqa ijodiy munosabatini shakllantirish orqali shaxslik xislatlarini tarkib toptirish.

Bularning barchasi muzey pedagogikasining rivojlanishi va shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, uni amalga oshirishda quyidagilarga rioya etish talab etiladi:

- muzeylarning maktablar oldida ijtimoiy-ma'naviy munosabatlarda mas'uliyatni his etishi;
- muzey-pedagogik vositalarning shaxsning dunyoni idrok etish va ijodiy qobiliyatining rivojlanishidagi yetakchilik rolini anglash;
- muzeyning o'quvchilar bilan axborot almashishida psixologik-pedagogik metodlarning qo'llanilishi;
- muzey muhitining jamiyat ma'naviy-intellektual muhiti bilan bog'liq ekanligini anglash.

Yuqoridagi talablar ham muzeylar faoliyati, ham maktablar ta'lim jarayonida o'zgarishlar qilishni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, maktablarning o'quv-tarbiyaviy dasturlari muzey pedagogikasi bilan qay darajada mosligini o'rganishni taqozo etadi.

5-9-sinflar uchun «Adabiyot» dasturida ham juda ko'p mavzularni muzeylarda o'rganish katta ahamiyatga ega. Adabiyot o'qitishning dars shaklidan tashqari fakultativ mashg'ulotlar, adabiy kechalar, adabiy bahslar, ijodiy uchrashuvlar, to'garak mashg'ulotlari, adabiy montajlar, adabiy ko'rgazmalar, adabiy sayohatlar, kitobxonlar anjumani kabi shakllaridan ham foydalanish qayd etilgan holda adabiyot muzeylariga ekskursiyalar tashkil etish mavzularni o'rganish katta imkoniyatlar mavjudligini namoyon qiladi.

Demak, umum ta'lim maktablari bilan muzeylar aloqadorligi, birinchidan, o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tarbiyalasa, ikkinchi tomondan, ta'lim samaradorligini oshiradi. Chunki muzey ekspozitsiyalari bilan fanlararo aloqadorlik o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini, ko'rish xotirasini, ijodiy tasavvurini, estetik didini o'stiradi. Ma'lumki, voqelikni bilish uni his etishdan boshlanadi. His etish borliqni idrok etish manbai hisoblanadi.

Masalan, san'at asarini ko'rar ekan, o'quvchi undan badiiy zavq oladi, bilimi ortadi, u yoki bu voqea-hodisa haqida tasavvur hosil bo'ladi. Chunki muzey ekspozitsiyalari borliqni, inson mehnati va turmushini aks ettiribgina qolmay, o'quvchilarning ma'naviy boyishiga ham yordam beradi.

Muzeylarda o'quvchilar o'qiganda uchrashadigan, lekin hech qachon ko'rmagan narsalari bilan tanishadilar. Bunda, albatta, muzeylar ekspozitsiyalari bilan ishlash jarayonida uning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor berish muhim. Bular:



1. Muzeylardagi mashg'ulotlar ma'lum ta'limiy va tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishi zarur.

2. Tanlangan materiallar o'quvchilarga tushunarli va bilish faoliyatini rivojlantirishga mos kelishi muhim.

3. Mashg'ulot uchun tanlangan ekspozitsiyalar ma'lum fanga doir mavzular bilan bog'liq bo'lishi maqsadga muvofiq.

4. Muzeylarda mashg'ulotlar uchun tanlangan manbalar badiiy yuksak asarlar bo'lishi kerak.

5. Muzeylar bilan aloqa muntazam, izchil bo'lishi lozim.

Ma'lumki, har bir fan asosini o'rganishda u yoki bu ijtimoiy davrning muhim voqealari bilan bog'lab o'rganilganda adabiyot, san'at, tarixiy voqealar o'sha davrdagi muhim voqealar, adabiyot va san'at namoyondalarining o'z zamonasida tutgan o'rni, kiritgan yangiligi uning ijtimoiy hayot bilan bir qatorda rivojlanib, taraqqiy etganligi haqida ham ma'lumot beriladi.

Shunga ko'ra, maktab va muzey faoliyatida o'zaro aloqadorlikni tashkil etishning o'ziga xos didaktik talablari, yo'nalishi, tamoyillari va imkoniyatlari bo'lib, bular pedagogikadagi an'anaviy metodikaga qaraganda innovatsion xarakter kasb etadi.

#### Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: O'zbekiston, 1998. – 31 b.
2. "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Halq so'zi, 1998 yil 12 yanvar.
3. Quronov M. Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya. – T.: Fan, 1995. – 118 b.
4. Stolyarov.A. Pedagogika Xudojestvennogo muzeya – istoriya isovremennost // Voyennaya shkola, 2002. No 7. – S. 37-43.
5. Юренева Т.И. Музей в мирово о культуре. – М.: Русскоеслово-РС, 2003. – 556 с

#### РЕЗЮМЕ

O'quv-tarbiya maskanlari va muzeylar faoliyatining aloqadorligi o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tarbiyalashning o'ziga xos yo'nalishi bo'lib, maqolada ta'lim-tarbiya jarayonida va muzeylarda mashg'ulot va ekskursiyalarni amalga oshirishning maqsadlari, muammolari va ularga muvofiq holda ularning asosiy tamoyillar haqida fikrlar bayon etilgan.

#### РЕЗЮМЕ

Взаимосвязь деятельности учебных заведений и музеев является специфическим направлением воспитания учащихся в духе уважения к духовному наследию, в статье излагаются цели, проблемы проведения занятий и экскурсий в учебно-воспитательном процессе и в музеях и в соответствии с ними их основные принципы.

#### SUMMARY

The involvement of the activities of educational institutions and museums is a specific direction of educating students in the spirit of respect for spiritual heritage, the article describes the goals, problems of carrying out training and excursions in the educational process and in museums, and their basic principles in accordance with them.